

**Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o‘qituvchilari va talabalaridan iborat
jamoalarning xalqaro tanlovlarda ishtirokini ta’minlash tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrda
“O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari
to‘g‘risida”gi PF–232-son Farmoniga muvofiq Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari va
professor-o‘qituvchilarining nufuzli xalqaro tanlovlar, xususan xalqaro moot court musobaqalari,
ilmiy-huquqiy forumlar va reytingga ta’sir qiluvchi tanlovlarda tizimli va shaffof ishtirokini
ta’minlash tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom talabalarning intellektual va kasbiy salohiyatini xalqaro maydonda
namoyon etish, universitetning global nufuzi va xalqaro reytinglardagi ko‘rsatkichlarini oshirish,
xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda raqobatbardosh yuridik kadrlar tayyorlash sifatini
yuksaltirish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur Nizom Toshkent davlat yuridik universiteti professor-o‘qituvchilari va
talabalarining xalqaro tanlovlarda ishtirok etish tashabbuslarini ko‘rib chiqish, jamoalarni
shakllantirish, ilmiy rahbarlarni tayinlash, tayyorgarlik jarayonini tashkil etish, ishtirok bilan
bog‘liq tashkiliy va moliyaviy masalalarni tartibga solish, shuningdek ishtirok natijalarini
monitoring qilish va baholash tartibini belgilaydi.

Nizom talabalar va professor-o‘qituvchilarning xalqaro maydonda universitet nomidan
ishtirok etish chog‘ida professional etika qoidalariga rioya etishi, universitet manfaatlarini
munosib himoya qilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha belgilangan tartibda hisobot taqdim
etishini ham tartibga soladi.

1.3. Ushbu Nizomda qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar:

xalqaro tanlov – xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar yoki nufuzli ta’lim va ilmiy
muassasalar tomonidan tashkil etiladigan, huquq, sud jarayonini modellashtirish (moot court),
ilmiy-tadqiqot va boshqa yo‘nalishlarda o‘tkaziladigan musobaqa, forum yoki tanlov;

moot court musobaqasi – talabalarning sud jarayonini modellashtirish asosida yozma va
og‘zaki shaklda huquqiy pozitsiyani ishlab chiqish va himoya qilishiga qaratilgan xalqaro tanlov;

jamoa – Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari va (yoki) professor-
o‘qituvchilaridan iborat bo‘lib, muayyan xalqaro tanlovda universitet nomidan ishtirok etish
uchun belgilangan tartibda shakllantirilgan guruh;

murabbiy (coach)– jamoaning tayyorgarlik jarayonini tashkil etuvchi, metodik va ilmiy
maslahat beruvchi hamda tanlov jarayonida jamoa faoliyatini muvofiqlashtiruvchi professor-
o‘qituvchi;

saralash jarayoni – xalqaro tanlovda ishtirok etish uchun talabalar va professor-
o‘qituvchilarni ochiq, shaffof va raqobat asosida tanlab olish tartibi;

Universitet Moot Court qo‘mitasi – moot court musobaqalarida ishtirok etuvchi
talabalarni saralash, jamoalarni shakllantirish, murabbiylarni tavsiya qilish va faoliyatini
muvofiqlashtirish hamda moot court faoliyatini rivojlantirish masalalarini ko‘rib chiquvchi

kollegial organ. Qo‘mita tarkibi universitet prorektorlarining tavsiyasi asosida universitet rektori buyrug‘i bilan shakllantiriladi.

reytingga ta‘sir qiluvchi tanlov – xalqaro reyting agentliklari tomonidan e‘tiborga olinadigan va universitetning xalqaro ko‘rsatkichlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan nufuzli tanlov yoki forum;

monitoring va baholash – xalqaro tanlovlarda ishtirok etish natijalarini tizimli ravishda tahlil qilish, ularning samaradorligini aniqlash hamda kelgusidagi faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan jarayon.

2-bob. Xalqaro tanlovni e‘lon qilish va talabalarni saralash tartibi

2.1. Xalqaro tanlovlarda ishtirok etish uchun ichki saralash jarayoni universitet rektori yoki tegishli prorektori ko‘rsatmasiga asosan e‘lon qilinadi. Tanlov e‘loni Toshkent davlat yuridik universitetining (keyingi o‘rinlarda – TDYU) rasmiy veb-saytida, universitetning rasmiy Telegram kanalida, fakultet va sho‘balarning rasmiy axborot sahifalarida, shuningdek Xalqaro hamkorlik boshqarmasining axborot platformalarida bir vaqtning o‘zida joylashtiriladi. Tanlov e‘loni barcha talabalar uchun teng va ochiq bo‘lishi belgilangan.

2.2. Tanlov e‘lonida tanlovning to‘liq nomi, o‘tkazilish shakli va darajasi, ichki saralash bosqichlari, baholash mezonlari, topshirilishi lozim bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati, ariza topshirish va saralash bosqichlarini o‘tkazish muddatlari, shuningdek mas‘ul tarkibiy bo‘linma va aloqa ma‘lumotlari ko‘rsatiladi. E‘londa talabgorlarning huquq va majburiyatlari hamda Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti tomonidan tashkil etiladigan saralash natijalari ustidan belgilangan tartibda murojaat qilish imkoniyati haqida ma‘lumot berilishi lozim.

Saralash natijalari ustidan shikoyat qilish ushbu Nizomning 3-bobi asosida amalga oshiriladi. Talabgor saralash natijasi e‘lon qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma shikoyat bilan Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakultetiga murojaat etishga haqli. Shikoyat 10 (o‘n) ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi va natijasi shikoyat beruvchiga yozma ravishda xabar qilinadi. Shikoyat natijasidan qoniqmagan talabgor belgilangan tartibda tegishli yuqori organga yoki sudga murojaat etishga haqli.

2.3. Talabalarni saralash umumiy mezonlar asosida amalga oshiriladi. Saralash jarayonida talabgor quyidagi mezonlar asosida saralab olinadi:

2.3.1 Akademik ko‘rsatkich (GPA);

2.3.2 Ingliz tilini bilish darajasi (minimum C1), speaking va listening ko‘nikmalari alohida baholanadi;

2.3.3 Huquqiy tahlil va argumentatsiya ko‘nikmalari;

2.3.4 Analitik fikrlash qobiliyati;

2.3.5 Xalqaro huquqiy manbalardan foydalanish salohiyati;

2.3.6 Global jarayonlarga moslashuvchanlik hamda xalqaro maydonda universitet manfaatlarini munosib himoya qilish imkoniyati baholanadi.

2.4. Talabalarni kurslar kesimida saralashda quyidagi talablar inobatga olinadi. Birinchi va ikkinchi kurs talabalari asosiy tarkibga kiritilmaydi hamda zaxira jamoa sifatida shakllantiriladi. Uchinchi kurs talabalari asosiy nomzodlar hisoblanadi. To‘rtinchi kurs talabalari tajribali ishtirokchi sifatida ustuvorlikka ega bo‘lib, avvalgi xalqaro tanlovlardagi ishtiroki va natijalari qo‘shimcha afzallik sifatida baholanadi.

2.5. Saralash jarayoni vakolatli saralash komissiyasi tomonidan to‘rt bosqichda amalga oshiriladi.

2.5.1. Saralash komissiyasi universitet rektori buyrug‘i bilan tuziladi va kamida 5 (besh) a‘zodan iborat bo‘ladi. Komissiya tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- Mas‘ul tarkibiy bo‘linma rahbari (komissiya raisi sifatida);
- Universitet sho‘balari professor-o‘qituvchilaridan kamida 2 (ikki) nafar vakil;
- Xalqaro hamkorlik boshqarmasi vakili;
- Moot court yoki xalqaro musobaqalar sohasida tajribaga ega mutaxassis (taklif etilgan ekspert sifatida).

Komissiya a‘zolari talabgorlar bilan shaxsiy manfaatdorlik yoki qarindoshlik aloqasida bo‘lmasligi shart. Bunday holat aniqlanganda tegishli a‘zo o‘zini chetlatishi yoxud raisning qarori bilan almashtirilishi lozim.

Komissiyaning barcha yig‘ilishlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

2.5.2. Birinchi bosqichda talabgorlar ingliz tili bo‘yicha test sinovidan o‘tkaziladi. Test jarayonida speaking va listening ko‘nikmalari alohida baholanadi hamda kamida C1 darajaga mos natija talab etiladi.

2.5.3. Ikkinchi bosqichda talabgorlarga muayyan huquqiy case asosida yozma ish topshirig‘i beriladi. Yozma ishda huquqiy argumentlarning asoslanganligi, mantiqiy tuzilma, xalqaro manbalardan foydalanish darajasi va tahliliy yondashuv mezonlari baholanadi.

2.5.4. Uchinchi bosqich og‘zaki suhbatdan iborat bo‘lib, unda talabgorning talaffuzi, nutq madaniyati, sud jarayonidagi chiqish ko‘nikmalari, stressga chidamliligi va savollarga mantiqiy hamda izchil javob berish qobiliyati aniqlanadi.

2.5.5. To‘rtinchi bosqich moot simulyatsiyasi shaklida o‘tkaziladi. Baholash xalqaro amaliyotda qo‘llaniladigan, xususan Philip C. Jessup International Law Moot Court Competition baholash varaqasi mezonlariga mos ravishda amalga oshiriladi.

3-Bob. Saralash natijalari ustidan shikoyat qilish tartibi

3.1. Talabgor saralash natijasi bilan kelishmagan taqdirda, natijalar rasman e‘lon qilingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma shikoyat bilan murojaat etishga haqli.

3.2. Shikoyat mas‘ul tarkibiy bo‘linmaga — Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakultetiga — yozma ravishda, shu jumladan elektron shaklda topshirilishi mumkin.

3.3. Shikoyatda quyidagilar ko‘rsatilishi shart:

- 3.3.1. talabgorning to‘liq ismi-sharifi va bog‘lanish ma‘lumotlari;
- 3.3.2. shikoyat qilinayotgan qaror yoki harakat;
- 3.3.3. talabgorning qaysi huquqi yoki manfaati buzilganligi haqidagi asoslangan dalillar;
- 3.3.4. talabgor tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi hujjatlar (mavjud bo‘lsa).

3.4. Shikoyat topshirilgan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi. Zarur hollarda ushbu muddat bir marta, 5 (besh) ish kuniga uzaytirilishi mumkin; bu haqda shikoyat beruvchiga muddatni uzaytirish sababini ko‘rsatgan holda yozma xabar qilinadi.

3.5. Shikoyatni ko‘rib chiqish uchun universitet rektori buyrug‘i bilan 3 (uch) kishidan kam bo‘lmagan apellyatsiya komissiyasi tuziladi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga shikoyat qilinayotgan qarorni qabul qilishda ishtirok etgan shaxslar kiritilishi mumkin emas.

3.6. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatni ko‘rib chiqqach, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

3.6.1. shikoyatni asosli deb topib, saralash natijasini bekor qilish yoki qayta ko‘rib chiqishni tayinlash;

3.6.2. shikoyatni asossiz deb topib, saralash natijasini o‘zgartirmasdan tasdiqlash.

3.6.3. Apellyatsiya komissiyasining qaroyi yozma ravishda rasmiylashtiriladi va shikoyat beruvchiga 3 (uch) ish kuni ichida yuboriladi.

3.6.4. Apellyatsiya komissiyasining qaroyi bilan kelishmagan talabgor O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tegishli yuqori organga yoki sudga murojaat etishga haqli.

4-bob. Murabbiylarni (coach) tanlash, tayinlash va ularning faoliyatini tashkil etish tartibi

4.1. Xalqaro tanlovlarda ishtirok etuvchi har bir jamoaga ikki nafar murabbiy biriktiriladi. Ulardan biri asosiy murabbiy, ikkinchisi assistent murabbiy sifatida belgilanadi. Murabbiylar universitet rektori buyrug'i asosida, Universitet Moot Court qo'mitasining tavsiyasiga ko'ra tayinlanadi.

Asosiy murabbiy jamoaning umumiy tayyorgarlik jarayonini boshqaradi, metodik rahbarlikni amalga oshiradi, yozma va og'zaki chiqishlar strategiyasini ishlab chiqadi hamda jamoaning xalqaro tanlovdagi natijalariga bevosita mas'ul hisoblanadi. Assistent murabbiy tayyorgarlik jarayonida asosiy murabbiyga ko'maklashadi, alohida yo'nalishlar bo'yicha, xalqaro huquqiy manbalarni tahlil qilish, nutq madaniyati, protsessual masalalar ishlaydi hamda jamoa a'zolarining individual rivojlanishiga mas'ul bo'ladi.

4.2. Murabbiy lavozimiga nomzodlarga quyidagi malaka va professional talablar qo'yiladi:

4.2.1 Nomzod tegishli huquq sohasi bo'yicha mutaxassis bo'lishi, ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lishi yoxud amaliy faoliyatda yuqori malakaga ega ekanligini tasdiqlovchi tajribaga ega bo'lishi lozim;

4.2.2. Ingliz tilini kamida C1 darajada bilishi shart bo'lib, huquqiy nutq va yozma argumentatsiya darajasi mustaqil ravishda mashg'ulot olib borish imkonini berishi kerak;

4.2.3. Nomzodning moot court musobaqalarida ishtirok etganligi yoki jamoalarni tayyorlash tajribasi mavjud bo'lishi ustuvor ahamiyatga ega;

4.2.4. Kamida uch yillik pedagogik tajribaga ega bo'lishi talab etiladi;

4.2.5. Xalqaro konferensiyalar, forumlar yoki moot court yo'nalishidagi ilmiy maqolalar, tezislari yoki boshqa publikatsiyalarning mavjudligi qo'shimcha afzallik hisoblanadi.

Bir murabbiy bir vaqtning o'zida faqat bitta jamoaga rahbarlik qilishi mumkin. Murabbiylik muddati uzluksiz uch yildan oshmasligi lozim. Zaruratga ko'ra, murabbiylik muddati yakunida faoliyat samaradorligi tahlil qilinadi va qayta tayinlash masalasi belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Murabbiy o'z faoliyatini halollik, xolislik va akademik etika tamoyillari asosida amalga oshirishi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi hamda jamoa a'zolariga teng sharoit yaratishi shart.

4.3. Xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan murabbiylarni jalb qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Xorijiy mutaxassislarni jalb qilish Toshkent davlat yuridik universitetida Xorijiy professor-o'qituvchilar va mutaxassislarni Toshkent davlat yuridik universitetining o'quv, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-innovatsion jarayoniga jalb qilish maqsadida ularning tashrifini tashkil etish hamda universitet professor-o'qituvchilari va xodimlarining xorijiy mamlakatlarga xizmat safarlarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom bilan muvofiqlikda amalga oshiriladi.

Xorijiy mutaxassislari universitet bilan oldindan kelishilgan muddat va shartlar asosida jamoa tayyorgarligiga metodik va konsultativ ko'mak beradi. Jalb qilish shartlari, jumladan

faoliyat muddati, o‘quv va trening dasturi, mas’uliyat doirasi universitet bilan xorijiy mutaxassis o‘rtasida shartnoma bilan belgilanishi shart.

Jalb etilgan xorijiy murabbiylar asosiy va assistent murabbiy vazifalarini izchil va samarali bajaradi. Ular jamoaning yozma va og‘zaki tayyorgarlik jarayonida faol ishtirok etadi, individual trening va maslahatlar orqali talabalarni xalqaro tanlovga tayyorlaydi. Murabbiylar bilan hamkorlik shartnomasi ularning majburiyatlari, mas’uliyati va moliyaviy shartlarini aniq belgilaydi.

4.4. Xorijiy murabbiylar jamoa a’zolariga quyidagi yo‘nalishlarda tayyorgarlik beradi:

4.4.1. Xalqaro huquqiy manbalarni tahlil qilish, sud nutqi madaniyati, mantiqiy argumentatsiya va protsessual ko‘nikmalarni shakllantirish;

4.4.2. Master-klasslar, simulyatsiya mashg‘ulotlari va yozma hamda og‘zaki treninglar o‘tkazadi.

Jalb etilgan xorijiy murabbiylar faoliyati universitet Moot Court qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan yo‘l xaritasi va tayyorgarlik dasturiga muvofiq amalga oshiriladi. Murabbiylar tomonidan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar va treninglar jamoa tayyorgarligini to‘liq qamrab olishi va xalqaro tanlov mezonlariga muvofiq bo‘lishi shart.

Xorijiy murabbiylarning tajriba va bilimidan samarali foydalanish, ular bilan doimiy aloqa va koordinatsiya universitet Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti tomonidan nazorat qilinadi. Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti murabbiylarning faoliyati maqsadga muvofiqligini, jamoa tayyorgarligiga qo‘shayotgan hissasini tahlil qiladi va zarur tavsiyalar beradi.

5-bob. Jamoa shakllantirish va xalqaro musobaqaga chiqadigan jamoani aniqlash tartibi.

5.1. Xalqaro tanlovlarda Toshkent davlat yuridik universitetini eng yuqori darajada namoyish etish, ishtirokchilar o‘rtasida sog‘lom raqobatni ta’minlash, eng kuchli va tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lgan jamoani aniqlash hamda universitetning xalqaro miqyosdagi obro‘cini oshirish maqsadida ikki jamoa shakllantiriladi va ular o‘rtasida ichki tanlov o‘tkaziladi.

Ikki jamoa shakllantirilgan taqdirda ular o‘rtasida ichki tanlov o‘tkaziladi va g‘olib jamoa xalqaro musobaqada universitetni rasmiy ravishda namoyish etish huquqiga ega bo‘ladi.

5.2. Ikki jamoa shakllantirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Universitet ichida yuqori darajadagi raqobat muhitini yaratish va ishtirokchilarni maksimal tayyorgarlikka undash.

- Eng malakali, motivatsiyali va tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lgan jamoani xalqaro musobaqaga jo‘natish orqali universitet obro‘cini himoya qilish va kuchaytirish.

- Ishtirokchilarga real musobaqa sharoitida o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rish, xatolarni aniqlash va tuzatish imkoniyatini berish.

- Ichki tanlov jarayonida barcha ishtirokchilarga qimmatli tajriba, bilim va ko‘nikmalar orttirish imkoniyatini yaratish.

- Xalqaro tanlovga tayyorgarlik madaniyatini shakllantirish va professional standartlarni oshirish.

- Kelajakda xalqaro tanlovlarda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan zaxira kadrlar bazasini yaratish.

5.3. Har ikki jamoa tarkibini shakllantirishda ochiqlik va shaffoflik tamoyili bo'yicha barcha qiziqish bildirgan talabalar va xodimlar uchun teng imkoniyatlar yaratiladi, tanlash mezonlari va jarayonlar oldindan aniq e'lon qilinadi.

5.4. Har bir jamoa uchun mas'ul rahbar tayinlanadi. Jamoa rahbarlari universitetning tajribali professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari yoki xalqaro tanlovlarda ishtirok etish tajribasiga ega mutaxassislar orasidan tanlanadi.

5.5. Har ikki jamoa uchun qat'iy tayyorgarlik dasturi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Reja nazariy tayyorgarlik, amaliy mashqlar, mock trial yoki simulyatsiya sessiyalari, yozma ishlar tayyorlash, og'zaki taqdimot ko'nikmalari, jamoa ichidagi koordinatsiya va hamkorlik, ichki tanlovga maxsus tayyorgarlik bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Universitetning akademik kalendari va o'quv jarayonini hisobga olgan holda moslashtirilgan jadval tuziladi. Tayyorgarlik jarayonida har ikki jamoaga zarur bo'lgan resurslarga teng kirishni ta'minlash uchun kutubxona resurslari, ma'lumotlar bazalari va ilmiy adabiyotlarga kirish, auditoriyalar va mashq xonalari, texnik vositalar va jihozlar, tashqi mutaxassislar va maslahatchilar xizmatlari, adabiyot, materiallar va o'quv qo'llanmalari ajratiladi.

Tayyorgarlik jarayonida jamoalar bir-biridan alohida ishlaydi. Ammo foydali tajriba almashish uchun ma'lum bosqichlarda qo'shma seminarlar yoki o'quv sessiyalari tashkil etilishi mumkin.

Universitet tashqi mutaxassislar, sudyalalar, amaliyotchi yuristlar yoki xalqaro tajribaga ega trenerlarni jalb etib, har ikki jamoaga maxsus treninglar va master-klasslar tashkil etadi. Tayyorgarlik jarayoni davomida har ikki jamoa bir necha marta ichki monitoring testlaridan o'tadi, bu tayyorgarlik darajasini baholash va kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

5.6. Ichki tanlov xalqaro musobaqadan bir-ikki oy oldin, jamoalar to'liq tayyorgarlikka erishgandan keyin o'tkaziladi. Ichki tanlov g'olibi universitetni xalqaro musobaqada rasmiy ravishda namoyish etish huquqiga ega bo'ladi.

Ichki tanlov formatini belgilash bosqichida tanlov formati xalqaro musobaqa formatiga maksimal darajada yaqin bo'lishi ta'minlanadi, bu real musobaqa sharoitiga moslashishni osonlashtiradi. Agar xalqaro tanlov moot court, debate, ilmiy taqdimot, yozma ish taqdim etish yoki aralash format bo'lsa, ichki tanlov ham xuddi shu formatda o'tkaziladi. Ichki tanlov bir necha bosqichdan iborat bo'lishi mumkin, masalan, yozma ish taqdim etish, og'zaki dalillar keltirib, jamoaviy muhokama qilish, yakuniy ko'rsatish yoki taqdimot. Ichki tanlov qat'iy mezonlar va ball tizimi asosida o'tkaziladi, bu ob'ektivlikni ta'minlaydi.

Hakamlar hay'atini tashkil etish bosqichida ichki tanlovni baholash uchun nufuzli va tajribali hakamlar hay'ati tuziladi. Hay'atga universitetning tajribali professor-o'qituvchilari, tashqi mutaxassislar, amaliyotchi yuristlar yoki sudyalalar, oldingi xalqaro tanlovlarda ishtirok etgan yoki g'olib bo'lgan vakil, ilmiy daraja va unvonga ega mutaxassislar kiritiladi. Hakamlar soni toq bo'lishi va kamida uch kishidan iborat bo'lishi tavsiya etiladi.

Natijalarni e'lon qilish va asoslash bosqichida ichki tanlov yakunida hakamlar hay'ati raisi rasmiy ravishda natijalarni e'lon qiladi. G'olib jamoa xalqaro musobaqada universitetni namoyish etish huquqini qozonadi. Hakamlar hay'ati har ikki jamoaning kuchli va zaif tomonlarini batafsil sharhlaydi. Har ikki jamoaga konstruktiv fikr-mulohaza beriladi va xalqaro musobaqaga tayyorgarlikni davom ettirish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi.

5.7. Ichki tanlov g'olibi aniqlanganidan keyin universitet g'olib jamoani xalqaro musobaqaga to'liq tayyorlash uchun barcha zarur qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi. Ichki tanlovda aniqlangan zaif tomonlar ustida maxsus ishlash amalga oshiriladi. Xalqaro musobaqa

sharoitlariga maksimal darajada moslashish uchun qo'shimcha simulyatsiya sessiyalari o'tkaziladi. Agar mumkin bo'lsa, xalqaro tajribaga ega tashqi trenerlar yoki maslahatchilar jalb etiladi.

G'olib jamoa xalqaro musobaqaga sayohat, turar joy, ovqatlanish, ro'yxatdan o'tish to'lovlari va boshqa barcha zarur xarajatlar uchun to'liq moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ega bo'ladi.

6-bob. Musobaqaning pre-moot (milliy va regional) bosqichlarini tashkil qilish tartibi

6.1. Xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik jarayonining muhim bosqichi sifatida pre-moot (milliy va mintaqaviy) bosqichlari tashkil etilishi mumkin. Mazkur bosqichlar ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasini baholash, nutq va huquqiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish hamda xalqaro bosqichga saralash maqsadida o'tkaziladi.

6.2. Pre-moot (milliy va mintaqaviy) bosqichlarini tashkil etishda kamida 10 (o'n) nafar professor-o'qituvchilar va soha mutaxassislari hakamlar hay'ati tarkibiga jalb etilishi shart. Ularning tarkibi tegishli fakultet dekani taqdimnomasiga asosan universitet rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

6.3. Hakamlar hay'ati tarkibiga xalqaro huquq, qiyosiy huquqshunoslik va tegishli ixtisoslik yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakaga ega professor-o'qituvchilar, amaliyotchi yuristlar hamda zaruratga ko'ra xorijiy ekspertlar kiritilishi mumkin.

7-bob. Xalqaro musobaqaga tayyorgarlik jarayonini monitoring qilish tartibi

7.1. Xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik jarayoni har bir musobaqa uchun birlashtirilgan murabbiy (coach) tomonidan ishlab chiqiladigan tegishli dastur (yo'l xaritasi) asosida amalga oshiriladi.

Mazkur dasturda belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti dekani tomonidan tayinlanadigan mas'ul koordinatorlar tomonidan muntazam monitoring qilinadi.

7.2. Har bir musobaqa bo'yicha ishlab chiqiladigan dasturda quyidagilar aks ettirilishi shart:

Musobaqa to'g'risida umumiy ma'lumotnoma;

Musobaqada erishilishi rejalashtirilgan natijalar prognozi. Bunda ko'zlangan natijalar tanlov turi va formatiga mos ravishda bosqichli va o'lchanadigan maqsadli indikatorlar ko'rinishida belgilanadi, xususan:

yozma ish (memorial) bo'yicha erishilishi mo'ljallangan ball oralig'i;

chiqilishi mo'ljallangan musobaqa bosqichi (saralash, chorak final, yarim final, final);

og'zaki bosqichda individual yoki jamoaviy mukofotga erishish;

avvalgi ishtirok tajribasi mavjud bo'lgan musobaqalarda oldingi ko'rsatkichdan yuqori natija qo'yish;

Universitet tomonidan birinchi marta ishtirok etilishi rejalashtirilgan musobaqalar uchun maqsadli indikator sifatida saralash bosqichini muvaffaqiyatli yakunlash yoki musobaqa me'yorlariga mos yozma ish taqdim etish belgilanadi.

Musobaqada ishtirok yakuni bo'yicha hisobotlarni taqdim etish muddatlari;

Zaruratga ko‘ra, musobaqa murabbiyiga asosiy vazifalaridan tashqari quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatilishi mumkin:

xalqaro akademik hamjamiyat bilan hamkorlik tarmog‘ini kengaytirish;

universitetning xalqaro ilmiy nufuzini oshirishga yordam berish;

akademik hamjamiyat vakillarini xalqaro reyting so‘rovlarida mustaqil va xolis ishtirok etishga rag‘batlantirish.

Reytingga oid faoliyat Professorlar kengashi bilan muvofiqlashtiriladi.

7.3. Xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik jarayoni musobaqaning ahamiyati va bosqichidan kelib chiqib, qoida tariqasida haftasiga kamida 4–6 soat etib belgilanadi hamda zaruratga ko‘ra oshirilishi mumkin. Tayyorlov jarayonida talabalarni o‘quv mashg‘ulotlaridan vaqtincha ozod etish masalasi belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi mumkin.

7.4. Musobaqa uchun ishlab chiqilgan dastur doirasida belgilangan majburiyatlarni bajarilmagan taqdirda, Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti dekani tomonidan kiritilgan bildirgi asosida tegishli choralar ko‘rilishi mumkin.

Intizomiy choralar quyidagi hollarda qo‘llaniladi:

- belgilangan tayyorgarlik dasturiga rioya etilmaganda;
- mashg‘ulotlar va simulyatsiya sessiyalariga asossiz sababsiz qatnashilmaganda;
- memorial, yozma ish yoki boshqa topshiriqlar o‘z vaqtida taqdim etilmaganda;
- jamoa ichki tartib-intizom qoidalarini buzganda.

Moliyaviy javobgarlik chorasini faqat ajratilgan mablag‘lar maqsadsiz yoki asossiz sarflangan taqdirda qo‘llaniladi. Yakuniy natija raqobat muhiti, raqib jamoalar va mustaqil hakamlar qaroriga bog‘liq tashqi omillarga ham bog‘liq bo‘lganligi sababli musobaqa natijasiga erishilganligi yoki erishilmaganligi o‘z-o‘zicha moliyaviy yoki intizomiy javobgarlik uchun asos bo‘la olmaydi.

8-bob. Musobaqa ishtirokchilarini taqdirlash tartibi

8.1. Xalqaro musobaqalarda tasdiqlangan dastur (yo‘l xaritasi) doirasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishgan ishtirokchilar hamda murabbiylar (coachlar) universitet tomonidan munosib tarzda taqdirlanadi. Taqdirlash shakllari sifatida faxriy yorliq, tashakkurnoma, esdalik sovg‘alari, bir martalik pul mukofoti hamda amaldagi ichki me‘yoriy hujjatlarga muvofiq boshqa rag‘batlantirish choralarini qo‘llash nazarda tutiladi.

8.2. Xalqaro musobaqa ishtirokchilari va murabbiylarini moliyaviy rag‘batlantirish masalasi Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti dekani tashabbusiga ko‘ra belgilangan tartibda universitet rahbariyatiga kiritiladi. Taqdimnomada erishilgan natijalar, ularning ahamiyati, musobaqa darajasi (xalqaro, mintaqaviy yoki global miqyosdagi nufuzi) hamda ko‘zlangan ko‘rsatkichlarga muvofiqligi asoslantirilgan holda bayon etiladi.

8.3. Xalqaro musobaqalarda erishilgan natijalarni keng targ‘ib etish va universitet nufuzini oshirish maqsadida mazkur yutuqlar universitetning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, axborot byulletenlari hamda boshqa ommaviy axborot vositalarida muntazam va tizimli ravishda yoritib borilishi ta‘minlanadi. Zaruratga ko‘ra, matbuot anjumanlari, brifinglar yoki tantanali taqdirlash marosimlari tashkil etilishi mumkin.

9-bob. Yakunlovchi qoidalar

9.1. Har bir o'quv yili davomida TDYU professor-o'qituvchilari va talabalaridan iborat jamoalarning xalqaro tanlovlarda ishtirokini ta'minlash bilan bog'liq barcha tashkiliy va moliyaviy masalalar universitetning yillik daromadlar va xarajatlar smetasida nazarda tutiladi.

TDYU buxgalteriyasi xalqaro tanlovlarda ishtirokni tashkil etish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, shuningdek universitet jamoalarini xorijiy davlatlarga yuborish bilan bog'liq xarajatlar uchun ajratilgan mablag'larning smeta doirasida to'g'ri va maqsadli ishlatilishini ta'minlaydi hamda moliyaviy hisobotlarni yuritadi. Bosh auditor mazkur mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishini monitoring qilish, nazorat va audit funksiyalarini amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi.

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti murabbiy (coach) sifatida xorijiy mutaxassislarning universitetga jalb qilinishi, shuningdek professor-o'qituvchilar va talabalar jamoalarining xalqaro tanlovlarga yuborilish maqsadi va samaradorligini o'rganish, monitoring qilish va tavsiyalar ishlab chiqish uchun mas'uldir.

9.2 Har bir o'quv yili yakunida xalqaro tanlovlarda ishtirok etgan jamoalar va ularning murabbiylari faoliyati, erishilgan natijalar, shuningdek jamoa a'zolarining tayyorgarlik jarayoni va baholash mezonlariga mosligi bo'yicha muhokama o'tkaziladi.

9.3 Muayyan xalqaro tanlov bo'yicha murabbiy sifatida ketma-ket uch marotaba tayinlanib, jamoaning natijadorligini ta'minlay olmagan hamda jamoa tomonidan mazkur tanlovda sovrinli o'rinlar, maxsus nominatsiyalar yoki boshqa e'tirof etilgan natijalar qayd etilmagan taqdirda, Universitet Moot Court qo'mitasining xulosasiga ko'ra ushbu murabbiy keyingi davrda ayni tanlov uchun murabbiy sifatida tavsiya etilmaydi va tayinlanmaydi.

9.4 Ushbu Nizom bilan belgilangan qoidalarga rioya qilmaslik holatlari aniqlanganda, tegishli prorektor tashabbuskorga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash bo'yicha rektorga taklif kiritadi.

9.5 Ushbu Nizom tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va barcha tegishli tarkibiy bo'linmalar uchun majburiy hisoblanadi.